



filologiya fanlari doktori, professor
Hamid G'ulomovich Ne'matov
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman MATERIALLARI



2021-yil 22-noyabr

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62760-5

Copyright © Guli Tairova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov
tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И
РЕШЕНИЕ»**

**материалы международной научной конференции
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович
Нематов
посвящается к 80-летию со дня рождения)**

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”
international scientific conference**

(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Nematov
dedicated to the 80th birthday anniversary)

Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-iyundagi oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq tashkil etilmoqda.

Anjumanning maqsadi: filologiya fanlari doktori, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va o'zbek tilshunosligi XXI asr birinchi choragida, filologiyada o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar, til ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'zbek va xorijiy tillarni qiyosiy o'rganish masalalarini ta'limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so'nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

DASTURIY QO'MITA

Xamidov O. X. – BuxDU rektori, i. f. doktori, professor, rais;

Qahhorov O.S. – BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, i.f.doktori, rais o'rinbosari;

Jamoliddinova O. – Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi maslahatchisi, a'zo;

Jumayev R.G'. – BuxDU o'quv ishlari bo'yicha prorektori, i.f.doktori (PhD), dotsent, a'zo;

Qahhorov S.Q. – BuxDU kasaba uyushmasi raisi, p.f.doktori, professor, a'zo;

Rajabov D.Z. – BuxDU filologiya fakulteti dekani, f.f.doktori (DSc), dotsent, a'zo;

O'rayeva D.S. – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a'zo;

Abuzalova M.Q. – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a'zo;

Axmedov A.R. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, a'zo;

Eshonqulov H.P. – BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.doktori, dotsent, a'zo;

Yuldasheva D.N. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, p.f.nomzodi, a'zo;

Nazarova S.A. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a'zo.

Toirova G.I. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), a'zo;

TASHKILY QO'MITA

Axmedov A.R. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, rais;

Toirova G.I. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), rais o'rinbosari;

Safarov A.K. – Buxoro viloyati PXMOQTI rektori, p.f.nomzodi, dotsent, a'zo;

Mengliyev B.R. – Toshkent DO'TAU professori, f.f.doktori, a'zo;

Ne'matova G.H. – Buxoro viloyati PXMOQTI prorektori, f.f.nomzodi, dotsent, a'zo;

Hamroyeva Sh.M. – Toshkent DO'TAU doktoranti, f.f.doktori (DSc), dotsent, a'zo;

Qilichev B.E. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a'zo;

Ne'matova L.H. – BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, dotsent, a'zo;

Asadov T.H. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a'zo;

Hojiyeva M.Y. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi, a'zo.

Yoqubova Sh. – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi, a'zo.

Mas'ul muharrir:

Axmedov A.R. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Abuzalova M.Q. – filologiya fanlari doktori, professor

Yuldasheva D.N. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toirova G.I. – f.f.f.doktori (PhD), dotsent

Устоз ҳақида сўз айтишнинг масъулияти оғир. Айниқса, дақиқ тилшунос, олис ва поёнсиз илм чўққиларига шогирдларини чорловчи, нотиклик ва етуклик илмининг фидойиси ҳақида. Ҳамид Ғуломович – ўзбек тилшунослигининг етук билимдони, ўзбек тилининг жонкуяри ва тарғиботчиси. У киши Ленинград шаҳрида А.Н. Кононов, С.Н.Иванов каби тил фидойилари туркологлар раҳбарлигида илмий изланишлар олиб борди. У киши шу ерда илмга меҳр қўйди ва олимлик шарафига муяссар бўлди. Ҳамид Ғуломовичнинг юксак чўққиларга кўтарилишида унинг ўзбек, тожик, турк, рус, немис, инглиз, форс, араб тилларини билиши муҳим ҳисса бўлиб қўшилди. Албатта илм йўли машаққатлидир. Аммо устоз бу йўлда собитқадам бўлди. Улуғ инсонлар, устозлар этагини маҳкам тутиб, уларнинг ишончларини оқлади.

Бобокалонимиз Алишер Навоий ҳазратлари устоз-шогирд муносабатлари ҳақида шундай деганлар:

*Шогирд агар шайхул-ислом, агар қозидур,
Агар устоз андин розидур, Тангри розидур.*

Бугун биз каби шогирдлар эл орасида обрў топиб юрганимизнинг сабабчиси ҳам – бу, устозлардир! Устозлардир! Устозлардир!

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ ВА УНИНГ ТАЪЛИМИНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚА ОЛГАН ОЛИМ

*Йўлдошева Дилором Нейматовна,
БухДУ ўзбек тилишунослиги кафедраси
профессори, п.ф.номзоди*

«Ўқитувчилар газетаси»нинг 1991 йил 3 январь сониди (газета мустақилликдан қарийб етти ой илгари чиққан) республика таълим маркази директори Н.М.Мирқурбонов, БухДУ профессори Ҳ.Ғ.Неъматов ҳаммуаллифлигидаги «Қонун ва тил муаммолари»¹ номли мақола чоп этилган эди.

XIX асрда яшаган француз олими М.Беллин ҳазрат Алишер Навоийнинг «Муҳокамат ул-луғатайн» китобидаги «Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз» деган ҳикматли сўзларидан таъсирланиб, 1861 йилда яратган «Мир Алишер Навоий биографияси ва ижоди» китобида шундай ёзади: «Алишер Навоий ўз миллий тилининг афзалиятларини инкор этиб бўлмайдиган далиллар билан исбот этганлиги – ўз халқи орасида ватанпарварликни бошлаб берганлигидан далолотдир»². «Ўқитувчилар газетаси»даги мазкур мақолада ҳам ватанпарварлик туйғуларини ҳис этасиз. Сабабки, исталган тилнинг яшовчанлиги, ҳудудий кенглиги ҳукмрон сиёсатнинг диққат марказида бўлиши, унинг таълимига эътибор қаратилиши билан чамбарчас боғлиқлиги ҳеч биримизга сир эмас. Ҳар бир даврда ҳам тил жонкуярлари бўлар экан, шукурки, она тилимиз ўлмайди, таназулга юз тутмайди...

Мақола Давлат тили ҳақидаги Қонун қабул қилинганлигининг иккинчи йилида ёзилган бўлиб, унда совет таълимида ҳукмрон бўлган ва жаҳонда энг илғор, самарали деб тарғиб этилган, аслида, моҳиятан чириган ёндашувни – «юқори»нинг буйруқ-кўрсатмаларини кўр-кўрона «лаббай» деб, бироқ садоқату эпчиллик билан амалга оширувчи «манқурт»ни тайёрлашга хизмат қилувчи ретроскопик-репродуктив усул ҳукмронлигидан воз кечиш ҳақида мулоҳаза юритилган эди.

Маълумки, репродуктив (лотинча:re–такрорлаш, produco–яратаман) усул таълимда берилган билимни эгаллаш ва хотирада айнан сақлаш йўли бўлиб, бу ўқувчига маълум миқдордаги билимни олувчи, ўқитувчига эса таълим жараёни субъекти сифатида муносабатда бўлади. Таниқли дидакт олимлар И.Я.Лернер, М.Н.Скаткин ўз тадқиқотларида репродуктив усулнинг моҳиятини атрофлича ёритганлар. Бу усул

¹ Мирқурбонов Н., Неъматов Ҳ. Қонун ва тил муаммолари// Ўқитувчилар газетаси. – 1991 йил, 3 январь.

² Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2005.

билишнинг дедуктив кўринишига асосланиб, унга мувофиқ, ўқувчиларда тайинланган қоида ва таърифлардан амалий ишларга ўтиш, тайёр хулосаларни амалиётга татбиқ этиш кўникмалари шакллантирилади. Кўринадики, бу таълимнинг пировард мақсади таълим олувчида эргашувчанлик, бўйсунувчанлик, идрокий ялқовлик ҳиссини қарор топтириш ва ривожлантиришга олиб келишдан иборатдир. Зеро, совет мафкураси билим қамрови кенг, турли фанларни ва ўз ихтисослигини чуқур эгаллаган, кўрсатилган масалаларни белгиланган тарзда еча оладиган мутахассисларни талаб қилиб, омманинг мустақил фикрлашини тақозо этмас эди. Яъни, шўро мафкурасининг давлат сиёсий тузуми ва идеологик структураси ҳамда пировард мақсади (коммунизм) мустақил фикрловчи шахсга эмас, “Бўл тайёр!” шиорига ҳар доим шай “содиқ солдат”га кўпроқ эҳтиёж сезар эди. Натижада, давлатнинг таълим сиёсати, таълим мақсади, усули ва мазмуни шунга монанд равишда ташкил этилган бўлиб, таълимда репродуктив усул, ўқитишда ретроспектив воситаларга устувор аҳамият берилган эди. Социалистик иқтисод ва мафкуравий муҳит эҳтиёжи сифатида шаклланган бу усул собиқ шўро таълим тизимида узоқ йиллар ҳукмронлик қилганлигининг боиси ҳам шунда.

1991 йил 3 январда чиққан «Ўқитувчилар газетаси»даги Н.М.Мирқурбонов, БухДУ профессори Ҳ.Ғ.Неъматовларнинг «Қонун ва тил муаммолари» номли мақоласи тил таълимида узоқ йиллар ҳукмронлик қилган «қизил ип» билан ўралган мазкур ўқитиш тизимидан воз кечиш муаммосини дадиллик билан кун тартибига кўяр эди.

Мақола муаллифлари тил таълимидаги муаммони кун тартибига қўйиш билангина чекланиб қолмай Давлат тили ҳақидаги «Қонун жумҳурият ҳукумати раҳбарлари зиммасига она тилимизнинг ҳуқуқий мавқеини мустаҳкамлаш масулиятини юклайди. Бироқ Қонуннинг биргина ўзи бундай масъулиятни ҳал этишга қодир эмас»лиги уқтирилади ва бу борада она тили таълимининг ўрнига алоҳида аҳамият берилади. Тил таълимида когнитив-вербал-прагматик (индуктив) усулга ўтиш зарурлиги асосли мисоллар билан далилланади. Маълумки, когнитив (ингл.: cognition – билишга оид, идрокий) таълим ўқувчини изланишга, қиёслашга, хулоса чиқаришга ва зарурини танлашга йўналтиради. Демак, репродуктив таълим билим берса, когнитив таълим билим олишга ундайди, билим олиш йўллариини ўргатади, усуллариини тавсия этади – ўқувчи қўлига билим калитини тутқазади. Чунки билим чексиз, унинг барчасини ўқувчига ўргатиб бўлмайди. Онгли ижодий фаолиятни акс эттирувчи когнитив таълим *индуктив, муаммоли, вербал, прагматик* каби қатор атамалар билан номланган. Бу атамалар моҳиятан бир хил бўлиб, ўзида «ўргатиш»ни эмас, балки «ўрганиш»ни акс эттиради. (Бу таълим усули ғарб педагоглари А.Озбель, П.Флагт, А.Рейнольдлар томонидан кўтарилган ва илмий асосланган.)

Мақолада умумий ўрта таълим жараёнида она тилидан ўқувчига тақдим этиладиган билимлар амалийлиги, прагматик қиймати билан белгиланиши зарурлиги, когнитив таълимнинг асосий воситаси алгоритмик дарслик-дастурлар эканлиги, у фақат йўналтирувчанлик, бошқариш вазифасини бажариши ва ўқувчиларнинг амалий билим эгаллашларини таъминлашга қаратилган бўлиши, ўқувчи алгоритмик дарслик-дастурда берилган топшириқларни бажариш учун турли лугат, қомус, маълумотнома, сўзлик, матнлар тўплами, машқлар тўплами билан иш кўриши, улардан фойдалана олиши – изланиши ҳақида гап боради.

Кўринадики, мазкур мақола она тили таълимининг янги мақсади ва мазмуни белгиланиши зарурлигини, шу мақсаду мазмунга мувофиқ усул, воситалар танланиши шартлигини, буларнинг барчаси соҳа мутахассисларидан катта масъулиятга тайёргарлик талаб қилишини «башорат» этади. Мустақиллик шарофати ила бугунги кунда давлат ва жамият билимли шахсни эмас, балки билимларидан жамият талабларига мос фойдаланувчи, бундай одат унинг табиатига айланган, яъни тарбияланган, маданиятли, маънавиятли шахсни етиштириб чиқаришни мактаб таълими олдига мақсад қилиб қўйди.

Дидакт олим И.Я.Лернер ўқувчиларда ижодий тафаккур кўникмаларини шакллантириш масаласига бағишланган тадқиқотида: «Билим эгаллаш тафаккурни

ривожлантирадимми?» («Развивается ли мышление усвоением знаний?») деган муаммони кўяди ва бу саволга «йўқ» деб жавоб беради. Таълим мақсади тўғри белгилангач, англадикки, бугун мактаб партасида ўтирган ўқувчига фақат билим бериш жиноятдир, шунингдек, таълим усули ҳеч қачон умумий, қатъий, қотиб қолган ва ягона бўлиши ҳам мумкин эмас. Билимлар тизимида ўзаро алоқадорлик – боғланиш, таққослаш, сабаб-натижа муносабатлари бўлмаса, у ўқувчи шахси тафаккурини ривожлантира олмайди.

Ўқувчи шахси тафаккурини ривожлантириш эса, мақолада таъкидланганидек, **янги типдаги алгоритмик дарсликлар воситасидагина амалга оширилиши мумкин. Бундай дарслик ёрдамида тадбиркор, ахборот манбаидан тўғри, оқилона, унумли, самарали ва тез фойдалана оладиган, ўз шароитида уларни онгли ва мақсадли қўллаш биладиган баркамол шахс вояга етади.**

Бугун онадек мўътабар тилимизга Давлат тили мақоми берилган, она тили таълими мақсади, мазмуни, усулу воситалари янгиланган бир даврда; ўзбек тилшунослиги ва унинг таълимини янги босқичга олиб чиқа олган салафлардан бири – тил жонкуяри Ҳамид Ғуломович Неъматов хотирасига бағишланган анжуман арафасида туриб, «эртак ҳақиқатга айланган» мақолада кўрсатилган ишлар амалга ошганлигидан қалбим ифтихорга тўлади.

Ўзбек тилшунослиги ва унинг таълимини янги босқичга олиб чиқа олган устозимиз хотираси ҳамиша ўзбек лисоншунослигида, фарзандлар, шогирд-издошлар хотирасида яшайди.

УСТОЗНИ СОҒИНАМАН...

Каримов Суюн Амирович,

Самарқанд давлат университети профессори

Ҳамиша муборак номларини ҳадсиз ҳурмат ва эҳтиром билан тилга олаётганимиз устоз Ҳамид Ғуломовичнинг номи нафақат туркология ва ўзбек тилшунослиги илми ихлосмандларининг, балки ўзбек илму маърифатидан хабардор барча инсонлар учун ҳам азиз ва мўътабардир. Бу улуғ инсонни таниш, суҳбатлари ва илмидан баҳраманд бўлишга Самарқанд Давлат университетида фаолият кўрсатган, филология соҳасида илмий даража беришга Ихтисослашган кенгаш сабаб бўлган.

Гарчи Ҳамид Ғуломовичдек йирик олимга яқин боришга журъат этолмаган бўлсак-да, Аллоҳнинг ўзи изн берди. Устоз мени ўз шогирдларидек қабул қилиб, илми ва маънавиятидан бир чимдим бўлса-да, баҳраманд этдилар. Устоз суҳбатларининг дилкашлиги ва самимийлиги, у зотдаги бағрикенглик ва донишмандлик ҳар сафар хайрлашишимизни қийинлаштирган, кейинги урашувларга орзуманд қилган. Устознинг менга «Амирзодам» деб мурожаат қилганларидан ўзимда олам-олам ҳаловат ҳис қилганман, шу боис бу азиз инсонга нисбатан меҳр-муҳаббатим ҳадсиз бўлган. Мирфайз мирзога кўрсатган иззат-икромларидан невараларга муомала қилиш одобини ўргандим.

Дунёвий ва диний илмларнинг мужассамлигини шу азиз инсонда кўрдим. Неваралари боболари билан навбатма-навбат Қуръон оятларини ўқиганларида хайратга тушдим. Шогирдларга муносабатда шу табаррук зот ибрат бўлди. Деярли барча шогирдлари билан бирма-бир таништириб, улар билан дўстлаштириб, илмий ҳамкорликни йўлга қўйиб бердилар. Менинг атрофимда бўлганларга ҳам устозлик мурувватини, маслаҳатини аямадилар.

Оддийлик ва камтарликлари билан қойил қилдилар. Оиламиз билан Бухорога борганимизда устоз эринмасдан ҳар бир қадамжогога ўзлари олиб бордилар, азиз авлиёларнинг тарихи билан бирма-бир таништирадилар. Самарқандга келганларида хонадонимиз аҳлидан хабар олдилар. Байрамлар муносабати билан биздан олдин табрик йўлладилар. Табригида албатта «Амирзодам» ва «хонабодлик» деган сўзлар бўларди.

Мен бугун устозни соғинаман, отамни соғингандай соғинаман. Пурҳикмат сўзларини, меҳрибончиликларини соғинаман. Илму маърифат билан йўғрилган

МУНДАРИЖА

INSON XOTIRASI AZIZ.....	3
Xamidov Obidjon Xafizovich, Qahhorov Otabek Siddiqovich. Hamid Ne'matov – buxoroyi sharif farzandi.....	3
Абузалова Меҳринисо Кадировна. Устоз ҳукмида Ф.Ҳегел умумлаштирган диалектик тамойиллар.....	5
Алимова Мухаррама Хаятовна. Зиёли оиланинг фарзанди.....	9
Ahmedov Atoullou Rahmatovich. Hayrat dunyosini ochgan suhbat.....	9
Ahmedov Bahodir Yaxshimurodov. Buyuk tilshunos olim, ajoyib inson.....	11
Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna. Meni hayratlantirgan suhbat.....	12
Бақоқўжаева Муҳиба. Ҳам лисон, ҳам ҳаёт илмини ўргатган устоз.....	13
Vozorov Odiljon. Ustozimiz yo'lidan.....	13
Воҳидова Нофиза. Устоз ёди – мангу.....	16
Жабборов Хўжамурод Жабборович. Олис илм чўққиларига чорловчи устоз.....	18
Йўлдошева Дилором Неъматовна Ўзбек тилшунослиги ва унинг таълимини янги босқичга олиб чиқа олган олим.....	21
Каримов Суюн Амирович. Устозни соғинаман... ..	23
Менглиев Бахтиёр. Ўзбек тилшунослигининг ислохотчиси.....	24
Мўминов Сиддикжон. Бағрикенглик.....	25
Назарова Саида Ахмеджановна. Илмдан ҳақни топган олим.....	26
Расулов Равшанхўжа. Учинчи авлод тилшуносларининг сардори.....	28
Қиличев Эргаш Ражабович. Турколог олим.....	28
Қувватова Дилрабо. Серфазилат инсон, бағрикенг устоз ва забардаст филолог.....	29
Шаҳобиддинова Шоҳида. Устоздан мерос билим.....	30
Ширинова Нилуфар Джаббаровна. Эл-юрт хурматиغا сазовор устоз.....	31
ҲАМИД НЕЪМАТОВ: ОНА ТИЛИ — МИЛЛИЙ ОНГ МАНБАИ.....	33
Ayrat Gatiatullin Rafizovich, Nilufar Abduraxmonova Zaynobiddin qizi. O'zbek tilining lingvistik ma'lumotlar bazasini shakllantirishda "turkiy morfema" portali instrument sifatida... ..	37
Mahmudov Yusif Məhəmməd oğlu. "Oğuznamə"lərdə ətraf mühitə münasibət və onun qorunması məsələləri.....	45
Quliyeva Kübra Fərrux qızı. Dialektologiyada yenu inkişaf meylləri və dilçilik atlasları.....	51
Бердиалиев Абдували. Гетеронимик муносабатнинг синтактик сатҳга хос амали ҳақида.....	55
Чудакова Вера Петровна. Особенности осуществления анализа терминологических характеристик и понятий науки «инноватика», при реализации «технологии формирования психологической готовности к инновационной деятельности».....	57
Alexander Kostov. The integration of languages in the analysis of fiction.....	63
Virna V. Velazquez. Proverbios antropocéntricos como el código cultural.....	66
Икромова Малика Azizjonovna. Flawless nature.....	68
Manzura Abdurashetovna Abjalova. Xolonim va meronim munosabati: modellashirish tamoyillari.....	72
Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li. Ona tili darsliklaridagi o'quv topshiriqlari mazmuni va metodikasi.....	76
Adizova Nilufar Istamovna. Erkin Vohidov dostonlarida pretsedent birliklarning o'rni.....	81
Нодира Бахтиёровна Адизова. Бухоро тумани ойконимлари ҳақида.....	86
Zamira Akobirova. Doctoral students: relationships between involvement in academic-social activities and self-perceived academic gains.....	89
Шукуржон Акрамов. Иккинчи даражали бўлақларнинг валентлик аспектидаги талқини.....	91
Зилола Қодировна Амонова. Ҳуруфийлик таълимоти ва насимийнинг шоирлик маҳорати.....	95
Asadov To'lqin Hamroyevich. Muallif nutqi metaforalarining yuzaga kelish asoslari xususida.....	98

Atoulllo Rakhmatovich Akhmedov, Sevara Mahmud qizi Po‘latova. Arealogiya tushunchasi haqida.....	100
Odiljon Bozorov. Til nazariyasini shakllantirish va boyitishda falsafiy kategoriyalar metodologiyasi.....	102
Nodira O‘tkir qizi Boltayeva. Tabassum kommunikativ-emotsional aloqa vositasi sifatida.....	105
Nazora Jo‘rayevna Bekova, Zarina Raxmiddinovna Sayliyeva, Feruza Sohib qizi Saidova. “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibidagi bir g‘azal tahlili.....	108
Nazora Bekova, Shahlo Halimova. Navoiyning “Navodir ush-shabob” devoni nashrlaridagi tarje‘bandlarning matniy tafovutlari va ularning g‘oyaviy-badiiy tahlili.....	110
Дилдора Бўронова. Инкорнинг лингвофалсафий, лингвомантикий, прагматик табиати хақида мулоҳазалар.....	112
Шоҳсанам Давронова. Қиссада бадий далиллашнинг ўрни.....	114
Nafisa Izzatullaevna G‘aybullaeva. Evfemizmning nutqdagi ijtimoiy ahamiyati.....	117
Орзигул Хайриддиновна Ганиева, Феруз Бахтиёрвич Садуллаев. “Муқаддас” кассасининг бадий хусусиятлари.....	118
Шахноза Кахрамоновна Гулямова. Кўп маъноли сўзлар қуршовини лингвистик моделлаштириш.....	122
Maqsuda Baqoyevna Ikromova. Xorijiy tillarni o‘rgatishda va o‘rganishda zamonaviy metodlar va texnologiyalarning o‘rni.....	124
Аъзамжон Авазжон ўғли Ихтиёр. Субъектив муносабат семантикасининг фраземалар парадигмаларини шакллантириши хусусида.....	126
Турсунали Жумаев. Морфологик тарихий қолдиқларда вариантлашув.....	129
Шахло Шокировна Жумаева. Миллий колорит ва унинг хусусияти.....	132
Nazokat Zaripboyeva. Milliy til korpusining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti.....	134
Nazokat Zaripboyeva. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish mezonlari.....	138
Ихтиёр Нигматуллаевич Камолов. Тилшунослик ва адабиётшуносликда биографик ёндашувнинг долзарблиги.....	142
Bayramali Kilichev, Intizora Axmatova. Ayrim toponimlarning tarkibi va semantikasi haqida.....	145
Bayramali Kilichev, Sharofiddin Rahmatullayev. O‘zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari.....	148
Дилрабо Қувватова, Раҳима Шарипова. Рауф Парфи шеърятида шамол рамз сифатида.....	151
Umidjon Yigitaliyev. “Shaxs” lisoniy zarrasining fonetik-fonologik tizimda voqelanishi.....	154
Shahnoza Yusufvna Yoqubova. Obyektli birikmalarning formal grammatik tavsifi xususida.....	155
Фармонов Б.Б. Рельефонимларнинг инглиз тилида семантик тузилиши.....	158
Khamdamova Sitora Bakhshilloevna. William Butler yeats’ myth-making features.....	160
Нафиса Низомиддиновна Ҳамроева. Илтифот ва унинг метакоммуникатив вазифалари.....	163
Ильхомжон Собирович Мадрахимов. Проблемы языковых единиц – одна из узловых проблем теоретического языкознания.....	165
Шохиста Тухташевна Махмараймова. Луғавий бирликлар ўртасидаги эпидигматик муносабат.....	169
Сиддиқжон Мўминов, Табассумхон Мўминова. Хуршид Дўстмуҳаммаднинг “Ёлғиз” кассасида бадий нутқ ва услубнинг ўзига хослиги.....	173
Maqbuba Muhammadova. Humoyun Mirzo Nisoriy talqinida.....	176
Дилфуза Сайтовна Нарзуллаева. Халқимизнинг момо култига алоқадор мифологик карашлари.....	179
Saida Axmedjanovna Nazarova, Maxfirat Yusupovna Xojiyeva. Lisoniy sintaktik birliklarning tibbiy nutqda voqelanishi.....	183
Ниязова Г. Детектив асарлар тилининг прагматик хусусиятларини таҳлил қилиш.....	186
Munavvar Sultonovna Olimova. Ona tilim – millatim ruhi.....	188
Зарина Олимова. Гулистон Матёкубова ижодида ташхиснинг ўрни.....	190
Ситорабону Уринова. Отличия и отличия рассказа издания “рабгузий” от его преобразований в рассказе “строительство и завершение каабы”.....	193